

TARBIYAVIY FAOLIYAT

VA UNI TASHKIL ETISH



Voxidova N.,

pedagogika fanlari doktori, professor



Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar:

tarbiya, tizim, kompetentsiya, imkoniyat, faoliyat.



Kirish.

Jahondagi globalashuv jarayonlari, ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar, ilm-fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlari negizida modernizatsiyalash ta'limni axborotlashtirish sharoitida yoshlar ijtimoiy faolligini "ommaviy madaniyat", terrorizm, ekstremizm, negilizm, giyohvandlik kabi salbiy illatlarga qarshi mafkuraviy kurash modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA)), yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari doirasida hamda Bolonya jarayoni tarkibida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlarini belgilash, tarbiya jarayonining interfaol shakllari variativligini ta'minlash borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda "Yoshlarni va tanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish" ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlash, innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvini rivojlantirish hamda mazkur jarayonning huquqiy-normativ, ilmiy-pedagogik, texnik, texnologik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlari kengaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada takomillashtirish ta'limning sifatli natijadorligiga qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishni mazmun jihatdan boyitishni talab qilmoqda. Bugun zamon bo'lajak o'qituvchilardan o'z kasbining mohir bilimdoni bo'lishni, egallayotgan sohasining sir-asrorlarini puxta o'zlashtirgan, o'zini o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z bilimi va iqtidorini to'laqonli ravishda jarayonga joriy eta oladigan mutaxassisga bo'lgan talabni qo'yimoqda.

Oliy ta'lim muassasalari ta'limini sifat jihatidan takomillashtirishga qo'yilayotgan talablar sirasiga: pedagogik jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo muloqotga tayyorlash, sub'ekt-sub'ekt munosabatlarga kirishish; tarbiyaviy faoliyatga kompetensiyaviy yondashuv; tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga innovatsion yondashuv, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy

faoliyatda texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga oid bilimlar bilan qurollantirish; ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish; tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga oid zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirishlari uchun maqbul imkoniyatlarni yaratish hamda tarbiyaviy faoliyatni muntazam takomillashtirish metodlarini o'zlashtirishlari kabilarni kiritish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'qituvchining tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash muammosini o'rganish jarayonida "tayyorgarlik", "kasbiy tayyorgarlik", "pedagogik tayyorgarlik", "kasbiy-pedagogik tayyorgarlik" "bo'lajak o'qituvchining tayyorgarligi", "bo'lajak o'qituvchining pedagogik tayyorgarligi", "bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi", "tarbiyaviy faoliyat" tushunchalarining mazmun mohiyatini yoritishga e'tibor qaratdik.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da tayyorgarlik tushunchasining quyidagi ikki xil ta'rifi keltiriladi: funksional (sub'ektiv) – shaxsning o'zini faoliyatni amalga oshirishga qodir deb biladigan, uni bajarishga intiladigan holati hamda mazmuniy (ob'ektiv) – sub'ektda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xossalar, sifatlar, bilimlar va malakalarning shakllantirilganligi.

"Tayyorgarlik" tushunchasiga berilgan ta'riflar o'rganilganda, u o'qituvchi professiogrammasi bilan belgilanadigan mezonlarning sifat tavsifnomasini ko'zda tutishi hamda shaxsning yo'naltirilganligini belgilovchi xossalar va tavsifnomalar; psixologik-pedagogik tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar; maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi; mutaxassislik bo'yicha metodik tayyorgarlikning mazmuni kabilarni o'z ichiga olishi bayon etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik – dinamik hodisa bo'lib, ko'pgina ichki va tashqi omillar bilan determinatsiya qilingan. Shuning uchun ham uning mohiyati va ko'rsatkichlarini aniqlashda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelamiz. Tizimli-tuzulmaviy tahlil va faoliyatli yondashuv kasbiy tayyorgarlikni quyidagi bosqichlar orqali tavsiflab berish imkonini beradi: 1) kasbga moslashish; 2) talabaning bilish-kasbiy faoliyatida o'z-o'zini dolzarblashtirishi; 3) talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllantirilishi bilish-faoliyatli yondashuvda yuz berishi (bu bosqichni biz malakaviy amaliyotga tenglashtiramiz); 4) ijodiy pedagogik faoliyatning barcha qadamlarini bajarish zarurligini his qilishni ko'zda tutuvchi pedagogik tadqiqotni bajarishdagi shaxsiy sifatlarining shakllanishi, ijodiy ruhanish [2].

O'qituvchining tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini shaxs umumiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish lozim. Chunki yuqorida ta'kidlab

o'tganimizdek, pedagogik tayyorgarlik o'z o'rnida pedagogik faoliyatni olib borish uchun shakllantirilgan va rivojlantirilgan kompetentlilikni ko'zda tutadi.

Pedagogik faoliyatga tayyorlik tuzilmasining komponentlarini tavsiflagan Z.K.Ismailova[3] uni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqsimlaydi:

1. Psixologik tayyorlik (motivatsion, irodaviy, his-tuyg'uli va boshqa psixologik jarayonlar va shaxsning bo'lajak faoliyatiga munosabatining holati);

2. Nazariy tayyorlik (sub'ektning ongida faoliyat, uning mohiyati, uning vazifalari, tamoyillari, mazuni, shakllari va metodlari haqida aniq tasavvurning bo'lishi);

3. Amaliy tayyorlik (u yoki bu pedagogik faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan malakalar to'plami). Aytish joizki, ushbu taqsimotda tayyorgarlik mazmunining barcha aspektlari qamrab olingan, biroq mazkur aspektlarning mohiyati tadqiqot ishi mohiyatiga ko'ra yoritilib berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Tarbiyaviy faoliyat unga tayyorgarlik ko'rish masalasi qator xorij olimlar tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar mazmunida kasbiy tayyorgarlikning bir qator jihatlari tahlil etilganligini ko'rish mumkin.

L.A.Baykova tarbiyaviy faoliyatni o'qituvchining o'quv faoliyati mobaynida o'quvchilarni tarbiyalashdagi ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan ma'lum qobiliyatlarni o'zi [4;49-b.], chiga olgan komponent deb ta'riflaydi. Undan farqli o'laroq, V.D.Shadrikov [5; 123-b.], tarbiyaviy faoliyat tushunchasini uni tashkil etish mazmuni va funksiyalaridan xabardor mutaxassis shaxsi bilan bog'lab, mazkur faoliyatni tashkil etishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlarini anglashiga ishora qiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish davomida ta'lim oluvchilarda zamonaviy bilimlarni egallashga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish, eng so'nggi fan tajribalarini egallash, ularni takomillashtirish, chuqur bilim-salohiyatga ega fuqarolar bo'lib etishishni oliy fazilatlaridan biri ekanligini tushuntirib borish zarur.

Tarbiya sohasida amalga oshiriladigan faoliyatning o'ziga xosligini A.S.Makarenko "Tarbiya sohasi ba'zi hollarda ta'lim metodikasidan farq qiluvchi alohida sohadir" deb tasniflaydi [6; 49-b.], Uning fikricha, tarbiyaviy ish metodikasi ta'lim mantig'idan farqli ravishda o'z mantig'iga ega bo'lib, ta'lim va tarbiya ishlari pedagogikaning ikkita bo'limini tashkil etadi. Mazkur fikrlar asosida, mumtoz pedagoglar tarbiya va ta'limning uyg'unligiga hamda bu jarayonda tarbiyaga ko'proq ahamiyat berilishini qat'iy talab etganlar degan xulosani qilishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tadqiqot ishi mavzusidan kelib chiqib "kasbiy tayyorgarlik", "pedagogik tayyorgarlik", "kasbiy-pedagogik tayyorgarlik", "bo'lajak o'qituvchining tayyor-

garligi", "bo'lajak o'qituvchining pedagogik tayyorgarligi", "bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi" kabi tadqiqot ishi bo'yicha umumiy tushunchalar bilab birga, "tarbiyaviy faoliyat", "bo'lajak o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi" tushunchalari o'rganilgan. Ta'lim-tarbiya muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyat xususida fikr yuritganda, qayd etishimiz lozimki, "tarbiyaviy faoliyat", "tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik" tushunchasining mazmun-mohiyati ko'p qirrali ekanligini ko'rish mumkin. Keltirilgan tahlillar, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan, pedagogik fanlar nazariyasi va amaliyotida ahamiyatli tadqiqotlar sirasiga kiradi deb aytishimiz mumkin.

Biroq, nomlari qayd etilgan tadqiqot ishlarida innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish masalasi etarlicha hal etilmagan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi turli jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, biroq ularning hech birida innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish muammosi maxsus yoritilmagan. Shunday bo'lsada, mazkur tadqiqotlar, innovatsion yondashuv mazmunini, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishdagi yondashuvlar mohiyatini anglashga muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Muhokama va natijalar.

Tarbiyaviy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini (jamiyat uchun zarurligi) anglash, tarbiyaviy faoliyat to'g'risidagi bilimlar majmuini o'zlashtirish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish usullari, tarbiyaviy faoliyatga oid malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish darajalari bo'yicha minimal tajribani o'zlashtirganlik, o'qituvchi shaxsining semantik yo'nalishlari, kompetentsiyaning shaxsiy ahamiyati (tarbiyaviy faoliyat nima uchun kerak va u qayerda amalga oshiriladi), o'qituvchining kompetentsiyasi darajasini aniqlash uchun o'quv, nazorat va baholash topshiriqlari namunalarining ta'lim bosqichlari bo'yicha ko'rsatkichlaridan iborat tarbiyaviy faoliyat tushunchasining tarkibiy qismlari ushbu faoliyatni samarali tashkil etishda omil vazifasini o'taydi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tizimli tarbiyaviy faoliyat o'qituvchilarning, tarbiyachilarning, mamlakat ziyolilarining g'oyaviy qarashlari, mafkuraviy immunitetlarida o'z aksini topadi, uning natijasida jamiyatning gullab yashnashi, ravnaq topishi, kishilarning ijtimoiy hayotining farovonligi hamda yoshlarning har tomonlama kamol topishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotda tarbiyaviy faoliyat tushunchasining, mazmuni, tarkibiy qismlari aniqlandi (1-rasmga qarang):

TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK



1-rasm. Tarbiyaviy faoliyat tushunchasining tarkibiy qismlari

Bu esa bo'lajak ta'lim beruvchilarning zimmasiga kelajak avlodlarni Yurt ravnaqi uchun ulkan hissa qo'shish, Vatanga sadoqatli bo'lish, ijtimoiy muhitda insonlarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, manfaatlar to'qnashuvini chetlab o'ta olish, halol, pokiza, insonparvar, o'z vatani kelajagi uchun qayg'uradigan, ma'naviy-axloqiy kompetentli etib ta'lim-tarbiya berish vazifasini qo'yib bermoqda. Mana shu fazilatlarni o'zida mujassam eta olgan, o'z kasbini mutaxassisi bo'lgan, bir vaqtda verbal va noverbal ta'lim olishni uddalaydigan va ta'lim berishni eplay oladigan bo'lajak mutaxassislarga yuksak cho'qqilarga erishgan, ma'nan etuk, barkamol, ijtimoiy faol inson sifatida shakllantira oladi deyishimiz mumkin bo'ladi.

Tarbiyaviy faoliyatga tayyor o'qituvchi tarbiyaviy faoliyat jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashni tashkil qilishda o'quvchini tarbiyalash jarayonini tashkil qilishga ishonchini nazarda tutuvchi qat'iy qarashlarga egalik nazarda tutiladi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchining o'zi tarbiyalangan bo'lishi hamda pedagogik jamoada ham tarbiyaviy muhitni yarata olishi talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorligiga doir mualliflik ta'rifini keltiramiz, o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatga tayyorligi – bu tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni egallaganlik hamda mazkur faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlikdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, tarbiyani samarali tashkil etishga tizimli yondoshuv ta'lim tizimidagi ko'pgina muammolarni hal etishga ham imkoniyat yaratadi. Tarbiya ishlarini tashkil etishga qiziqishning ortishi esa ta'lim va tarbiya jarayonlarini birgalikda olib borishning ta'lim muassasalaridagi o'rni va ahamiyati, statusini oshirib borishi bilan ham izohlanadi. Shu sababli, bo'lajak pedagoglarda qisqa muddatda tahliliy materiallar asosida kelajakni o'ylab qabul qilinadigan qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantirish; ta'lim oluvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar vakillari bilan samarali muloqot usullariga, jumladan o'z imidjiga ega bo'lish kabi qobiliyat kabilarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash va amalga oshirish jarayoni pedagoglardan kreativlik, mobillik, insoniylik, tashabbuskorlik, faollik, o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari tengligi va yana ko'plab ijtimoiy faollik xususiyatlarini talab etadiki, bu talab pedagog-o'qituvchilar zimmasiga bir qator ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrik nutqi.
2. Ходжабоев А.Р. Учебно-методический комплекс подготовки учителей трудового обучения. Метод. реком.– Т.:УзНИИПИ, 2009. - 93 с.
3. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 186 b.
4. Байкова Л.А. Методика воспитательной работы: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2006. – С. 120.
5. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. – М.: Логос, 1996. – 320 с.
6. Макаренко А.С. Сочинения: 8 т. Т. 5 / Макаренко А.С. – М.: 1985. – 333 с